

ARBITRAJ QARORLARINI RAD ETISH MASALALARI

Raxmonberdiyev Sherdorbek

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik” fakulteti 3-kurs talabasi

Abstract: *Mazkur maqola bugungi kunda ommalashib borayotgan hamda samarali va tezkor deb e’tirof etilayotgan arbitrajlarining, ko’rilgan ish yuzasidan qabul qilgan, tomonlar uchun bajarish majburiy bo’lgan qarorlarining rad etilishi hamda ijroga qaratilmasligini, shuningdek, ushbu jarayonga sabablar hamda subyektiv fikrlar va olimlarning yechimlarini tahlil qiladi. Avvalo, shuni e’tirof etishimiz lozimki, arbitraj qarorlarini inkor etish oson emas, chunki arbitrajda ishi ko’rilayotgan tomonlar roziligi bilan ushbu jarayon boshlanadi va yakuniy qaror chiqishi bilan yakunlanadi. Shuning uchun, aksar holatlarda tomonlar qarordagi majburiyatlarni bajaradilar, rad etish holatlari esa, amaliyotda kam uchraydi. Shunga qaramay, taqchil hisoblangan ushbu holatlarni keng yoritishga, amaliy misollar bilan boyitishga harakat qilamiz.*

Key words: *arbitraj, arbitraj qarori(awards), vaqtinchalik qaror, qarorni rad etish, qisman qaror,*

KIRISH

Bugungi rivojlanib borayotgan davrda davlatlar o’rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarning rivoji, o’zlarining xususiy iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishni vujudga keltirmoqda. O’zlarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida davlatlar o’zaro huquqiy hamkorlik masalalariga alohida e’tibor berishmoqda. Xalqaro savdo-iqtisodiy integratsiyalashuvni huquqiy jihatdan himoya qilishning ustuvor yo’nalishlari, vazifa va maqsadlari o’zaro ikki tomonlama yoki ko’p tomonlama shartnomalarda o’z aksini topmoqda. Iqtisodiy-siyosiy munosabatlarni amalga oshirish va tartibga solish masalalari xalqaro shartnomalar bilan tartibga solinmoqda. Savdo-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi davlatlar o’rtasidagi va ularning subyektlari o’rtasida vujudga keladigan nizolarni bartaraf etishni ham nazarda tutadi. Ushbu nizolarni hal qilish uchun xalqaro tijorat arbitrajleri yordamga keladi.[1]

Ushbu holatda arbitrajlar taraflar tomonidan shakllantiriladi, umumiy arbitraj tartib-qoidalariga asosan muammolar hal qilinadi. Yakunda esa arbitrajning yakuniy qarori o’qib eshittiriladi. Taraflardan biri qarordan norozi bo’lsa uni bekor qilishi juda mushkul ish. Chunki, arbitraj qarorlari yakuniy va majburiydir va shuni bilgan holda tomonlar arbitraj bitimini(kelishuvini) imzolaydilar.

ASOSIY QISM

Arbitraj qarorlarining qabul qilinishi

Taraflar, odatda, arbitrajning yakuniy va majburiy qarorga kelishini kutadilar. “Qaror”ning keng ma’nodagi ma’nosi shundan iboratki, bu ish holatlaridan kelib chiqadigan arbitrlarning yakuniy qarorlaridir. Arbitraj “qisman qaror” yoki “vaqtinchalik qarorlar” ham chiqarishi mumkin, ammo ular ham tugal bo’lib, taraflar uchun majburiy bo’lishi mumkin. Bundan tashqari, arbitrlar tarafidan jarayon davomida hal etiladigan va arbitrajning hal qiluv qarorini tashkil etmaydigan muayyan ko’rsatmalar va buyruqlar chiqarilishi mumkin.[2]

Arbitraj qarori – ishni arbitraj sudida ko’rish natijalari bo’yicha chiqariladigan yakuniy hujjatdir. Arbitraj qarorida quyidagilar aks etadi:

- ☒ Qarorga asos bo’lgan motivlar va dalillar
- ☒ Arizani qabul qilish yoki uni rad etish to’g’risidagi xulosa
- ☒ Arbitraj yig’imi va xarajatlar hamda ularning taraflar o’rtasida taqsimlanishi
- ☒ Arbitraj bo’lgan sana va joy

Qaror haqiqiy bo’lishi uchun taraflarning kelishuviga, tanlangan qoidalarga va amaldagi qonunchilikka muvofiq bo’lishi kerak. Qoidalarda belgilangan rasmiyatchilikka rioya qilinishi lozim. Misol uchun, UNCITRAL qoidalariga ko’ra, qarorlar quyidagicha bo’lishi kerak:

- Yozma ravishda
- Yakuniy va majburiy
- Asoslantirilgan
- Arbitrlarning imzosi
- Arbitraj sudi joyi va sanasi
- Ikkala tarafga yetkazish.[3]

Arbitrlar, chiqargan qarorlari har tomonlama mos kelishiga ishonch hosil qilishi uchun, ularning arbitraj qoidalariga mosligini tekshirishlari kerak. Garchi shaklga oid ba’zi talablariga javob bermaslik, masalan, arbitraj sudi sanasi va joyini ko’rsatmaslik, qarorni bekor qilmasa ham, norozi tarafga usbu qarorga qarshi harakat qilishga, uni rad etish uchun faoliyat boshlashiga asos bo’lishi mumkin.

Arbitraj qarorlarining ijroga qaratilishi

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, arbitrajda yutqazgan taraf o’z ixtiyori bilan arbitraj qarorini bajaradi, shuning uchun ijro ishni yuritish zarur bo’lmaydi. Lekin taraf norozi bo’lsa va qarorni amalga oshirmasa, g’olib taraf mag’lub tarafni ijrodan bosh tortgani sababli suddan majburiy ijro yurituvini boshlashni talab etadi. Aksar vaziyatda sud qarorni majburiy ijroga yo’naltiradi va u mag’lub tarafdin undirib beriladi. Xalqaro tijorat nizolari bo’yicha taraflarning arbitraj sudiga murojaat qilishining asosiy sabablaridan biri – bu qarorning majburiy ijro etilishi nisbatan aniqligidir.

Xalqaro tijorat arbitraji qarorlarini ijro etish to’g’risidagi Nyu-York konvensiyasiga ko’ra, mamlakatlardan chet el arbitraj qarorlarini majburiy deb tan olish va ularni

Konvensiya qoidalariga va milliy qonunchilikka muvofiq ijro etilishini ta'minlashni talab etadi. Hozirda ushbu Konvensiyaga 156 dan ortiq mamlakat a'zo hisoblanadi. Shuningdek, "tan olish" va "ijro etish" terminlari turlicha process ekanligi unutmashimiz lozim. Sudlar arbitraj qarorlarini tan olganda, qaror haqiqiy va majburiy ekanligini tan oladi va shu bilan arbitraj qarorida belgilangan masalalarga nisbatan ustuvor kuch beradi.[4]

Arbitraj qarori rasmiy huquqiy maqomga ega, shuning uchun arbitraj qarorida belgilanadigan masalalar, odatda bekor qilinishi yoki qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas.

Arbitraj qarorini rad etish asoslari

Arbitraj qarorlarini rad etish murakkab jarayon bo'lishiga qaramay, buning imkoniyati mavjud. Shikoyat qilishning eng keng tarqalgan usuli – arbitraj qarorini xaqiqiy emas deb topish, bekor qilish yoki arbitrajni rad etish to'g'risidagi sud qarorini chiqarish haqidagi da'voni arbitraj joyidagi sudga kiritishdir. Ushbu sud haqida ma'lumot UNCITRAL Xalqaro tijorat arbitraj to'g'risidagi namunaviy qonunining 6-moddasida keltirilgan, "11-modda 3-4-qismlari, 13-modda 3-qismi, 14, 16-modda 3-qismi, 34-modda 2-qismlarida sanab o'tilgan funksiyalar sudlov organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu namunaviy qonunni qo'llovchi har bir davlat sudni belgilaydi; sudlar yoki ularda nazarda tutilgan hollarda ushbu funksiyalarni bajarishga vakolatli bo'lgan boshqa organlar".[5] Ushbu hujjatga ko'ra, arbitraj qarori davlat sudlari tomonidan rad etilishi(bekor qilinishi) mumkin. Misol tariqasida, O'zbekiston Respublikasida ushbu vazifani mamlakatning Iqtisodiy sudlari amalga oshiradi. Chunki aynan mana shu sudlar joylardagi arbitraj protsesslari odilona va korrupsiyasiz o'tkazilishi uchun nazorat yurisdiksiyasiga ega deb hisoblanadi.

Qanday holatlarda arbitraj qarorlari rad etilishi mumkin?

Aksariyat huquqshunos olimlarning kitoblarida keltirilishicha, rad etish uchun e'tiroz kiritish asoslari uchta toifaga bo'linadi:

I. Yurisdiksiyaviy;

II. Protsessual;

III. Boshqa.

Arbitraj sudi qarorlari ustidan yurisdiksiya bo'yicha ham nizolashish mumkin, ammo bunday holatlar odatda, qaror chiqarilgandan keyin emas, arbitraj jarayoni boshida amalga oshiriladi. Ko'pgina qonunlarga ko'ra, agar taraf arbitraj sudi boshlanishidan avval yurisdiksiyaga qarshi chiqmasa, u bu asos bo'yicha e'tiroz huquqini yo'qotishi mumkin. Shubhasiz, yurisdiksiyaning to'g'ri yoki noto'g'riligini, taraflar yakuniy qarorga erishish uchun vaqt, kuch, mablag' sarflaganidan keyin emas, balki arbitraj muhokamasi boshida aniqlashi samaraliroq. [6]

Arbitraj qarori ustidan aksariyat shikoyatlar protsessual asoslarga asoslanadi. UNCITRAL namunaviy qonunining 34-moddasida ham, "1. Arbitraj qaroriga qarshi regress da'vo faqatgina ushbu moddaning 2 va 3-qismlariga muvofiq bekor qilish to'g'risida murojaat qilish yo'li bilangina amalga oshirilishi mumkin.

2. Arbitraj qarori 6-moddada nazarda tutilgan sud tomonidan faqat quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin, agar:

(a) bu iltimosni qilayotgan taraf:

(i) 7-moddada nazarda tutilgan arbitraj bitimidagi taraflardan biri qandaydir darajada muomalag layoqatsiz bo'lganligi; yoki taraflarning bitimi taraflar bu bitimga asos qilib olgan qonun bo'yicha, bunday ishora qilinmagan bo'lsa – mazkur davlat qonuni bo'yicha haqiqiy emasligi; yoki

(ii) u arbitr tayinlanishi yoki arbitraj muhokamasi to'g'risida lozim darajada xabardor qilinmaganligi; yoki u boshqa uzrli sabablarga ko'ra o'z tushuntirishlarini taqdim eta olmaganligi; yoki

(iv) arbitrajning tarkibi yoki arbitraj tartib-taomili, agar taraflarning bitimi ushbu qonunning taraflar chetga chiqishi mumkin bo'lmagan har qanday qoidasiga zid bo'lmasa, shunday bitimga muvofiq emasligi yoki bunday bitim bo'lmasa, ushbu qonunga muvofiq emasligi dalillarini taqdim etsa.

Ushbu holatlar aniqlangudek bo'lsa, taraf sudga arbitraj qarorini bekor qilish masalasida murojaat qilishi mumkin.

Bundan tashqari nizo obykti mazkur davlat qonunlari bo'yicha arbitraj muhokamasining predmeti bo'lishi mumkin emasligini aniqlagan bo'lsa, arbitraj qarori bekor qilinishi mumkin. Lekin ushbu holat ham juda kam uchraladigan vaziyat hisoblanadi, chunki bugungi kunda aksariyat masalalar arbitrajga tegishli hisoblanadi. Ba'zi turdagi masalalarni arbitraj vositasida hal etishni davlatlar tomonidan taqiqlashning asosiy sababi – bu arbitraj ommaviy oqibatlar keltirib chiqaruvchi xususiy prosesdir.[7] Shu sababdan, muayyan turdagi nizolar faqat davlat sudlari tomonidan hal qilinishi mustahkamlab qo'yilgan. Bunday nizolar sirasiga, jinoiy ishlar, ma'muriy tartib-taomillar, bankrotlik kabi ommaviy tarmoqqa tegishli bo'lgan masalalarni kiritish mumkin. Ingliz huquqiga ko'ra, agar nizo predmetiga nisbatan shunday cheklovlar mavjud bo'lsa, arbitraj qarori tan olinmaydi va ijro etilmaydi.[8]

Shuningdek, arbitraj qarori ushbu mamlakatning ommaviy tartibiga zid bo'lsa, bekor bo'lishga asos bo'ladi. Davlat siyosati turli yurisdiksiyalarda turlicha belgilanadi, ammo aksariyat hollarda qaror doillik, halollik va adolatning asosiy tushunchalariga mos kelmasa, bekor bo'lishi mumkin. Ya'ni, korrupsiya, firibgarlik, jarayonda halollikning yo'qligi qaror bekor qilinishini talab qiladigan davlat siyosatining buzilishi deb topilishi mumkin.

AQSHning arbitraj to'g'risidagi federal qonunida, qarorni bekor qilishga quyidagi asoslarni keltrigan, "arbitraj qarori korrupsiya, firibgarlik yoki nohuquqiy vositalar yo'li bilan olingan bo'lsa, arbitrlarda aniq noholislik yoki korrupsiya ochiqdan-ochiq bo'lgan bo'lsa" rad etiladi.[9]

Bekor qilish to'g'risidagi iltimosnoma, iltimos qilayotgan taraf arbitraj qarorini olgan kundan e'tiboran uch oy ichida ma'lum qilinishi kerak. Ushbu muddat Namunaviy qonunda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, Qo'shma Shtatlarda shu tartibda bo'lsa, Angliyada 28 kun, Fransiyada bir oy, Xitoyda olti oygacha murojaat qilishi imkoniyati mustahkamlab qo'yilgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, aynan arbitraj sudlarining faqat bir instansiyadan iborat ekanligi, ularning qarorlari majburiy va yakuniyligi, boshqa sudlardan ajralib turadigan jihati hisoblanadi. Shuning uchun kamdan-kam holatlarda yakuniy xarakterga ega bo'lgan arbitraj qarorlari bekor qilinishi mumkin. Yuqorida bekor bo'lish uchun bir necha asoslarni o'rgandik hamda xulosa qilishimiz mumkinki, aksar holatlarda arbitraj qarorlari tan olinadi va ijroga qaratiladi. Kuzatishimiz mumkin bo'lgan holatlar esa, rad etish uchun, asosan, ommaviy tartibga zidlik hamda protsessda yo'l qo'yiladigan xatoliklardir.

REFERENCES:

[1] Norboyev, Baxtiyor G'Afforovich. "XALQARO TIJORAT ARBITRAJI BO'YICHA SINGAPUR KONVENSIYASI VA MILLIY SUDLARNING O 'ZARO MUNOSABATI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.5 (2022): 1042-1053;

[2] Moses, Margaret I., *The principles and practice of international commercial arbitration*, -2nd ed; 189 ;

[3] United Nations: *United Nations Commission on International Trade Law*. February 2014. All rights reserved worldwide;

[4] Gary B. Born, *International Commercial Arbitration* 3732, 3732–3733 (2d ed. 2014);

[5] *UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration* (1985; with 2006 amendments);

[6] Moses, Margaret I., *The principles and practice of international commercial arbitration*, -2nd ed;

[7] Blackbaby N., Partasides C. (2015) *Redfern and Hunter on International Arbitration. Student Version*. 6th edn. Oxford, United Kingdom: Oxford University Press;

[8] *English Arbitration Act* (1996);

[9] *U.S. Federal Arbitration Act*, 9 U.S.C.